



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 25-aprel, payshanba,
49 (23.926)-son

**KUN
HIKMATI**

Bir marta
yo‘qotilgan
ishonchni
qayta tiklab
bo‘lmaydi



www.zarnews.uz

<https://www.facebook.com/zarnews.uz>

[@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

https://twitter.com/zarnews_uz

2024-yil 1-martdan fuqarolarni ijtimoiy daftarlarga kiritish hamda ushbu daftarlari orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish “Mahalla yettiligi”ning kollegial qarori asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bunday qarorlar asosida ko‘rsatiladigan 264 ta ijtimoiy yordam va ajratiladigan subsidiyalar ro‘yxati ham tasdiqlandi.

“Mahalla yettiligi” – Kengash – Senat”

uch bo‘g‘inli hamkorlik tizimi

tashkil etiladi



2024-yil 1-yanvardan barcha tuman va shaharlarda “Mahalla budgeti” tizimi amaliyotga joriy etildi. Endi har bir mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mavjud.

Ushbu jamg‘arma daromadlari va xarajatlarini o‘rganish lozim, ushbu mablag‘larni to‘g‘ri va samarali, joy-joyida ishlatish, “Tashabbusli budget”da yetarli ovoz ololmagan, ammo aholi e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan muammolarni hal etishga yo‘naltirilayotganligiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Xo‘sh, bugun joylarda “mahalla yettiligi”ning ish tizimi qanday tashkil etilyapti? Mahalliy kengash deputatlari va “mahalla yettiligi”ning hamkorligi yo‘lga qo‘yilganmi, agar shunday bo‘lsa, u qay darajada? Oliy Majlis Senati a‘zolari joylarda shu masalalarni o‘rganmoqda.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi a‘zosi Gulnora Ma‘rufova boshchiligidagi ishchi guruhi viloyatdagi bir nechta shahar va tumanlarda bo‘lib, bu bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi. Xususan, Kattaqo‘rg‘on, Ishitxon, Oqdaryo tumanlarida “mahalla yettiligi” faoliyati, hududlarda mahalla faollari yordami bilan tashkil etilgan korxonalar, yaratilgan ish o‘rinlarini o‘rgandilar.

Oliy Majlis Senatining “Mahalladagi muammolarni hal

etishda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari va senatorlarning “mahalla yettiligi” bilan o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani, deydi senator Gulnora Ma‘rufova. - Unga ko‘ra, mahalliy Kengash deputatlari hudud-dagi mahallalarga biriktirilgan va har chorakda hamkorlikdagi ishlarni mahalliy Kengash sessiyasida muhokama qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu vazifa joylarda nechog‘lik bajarilishi bo‘yicha o‘rganishlar olib bordik. Vazifa mohiyati bo‘yicha tushunchalar berildi, tajribali mahallalar e‘tirof etildi. Xususan, Ishitxon tumani-dagi Beshariq, Kattaqo‘rg‘on shahridagi Oqoltin, Oqdaryo tumanidagi Pichoqchi mahallalarida mahalliy Kengash bilan samarali hamkorlik olib borilayotgani, bu esa aholi muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etayotganiga guvoh bo‘ldik.

O‘rganish davomida joylarda “Mahalla yettiligi” – Kengash – Senat” uch bo‘g‘inli hamkorlik tizimi mohiyati tushuntirildi. Mahalla endi ilgariqiday nomi boru biron masalani mustaqil hal etolmaydigan tuzilma emas, balki aniq ishlash mexanizmlariga ega bo‘layotgan, moliyaviy mustahkamlanayotgan, haqiqiy ma‘noda o‘zini o‘zi idora qilayotgan idoraga aylanayotgani ta‘kidlandi.

G.MO‘MINOVA.

Viloyat hokimligi va tadbirkorlaridan iborat delegatsiya mamlakatimizning Shanxaydagi Bosh konsulxona-si ko‘magida Xitoyning bir qator provinsiylarida bo‘lib, o‘zaro tajriba almashmoqda.

Viloyat hokimining o‘rinbosari Shunqor Xudoyberdiyev, fermer va tadbirkorlar “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi doirasida poliz va sabzavot sanoatini rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilayotgan ko‘rgazmada qatnashdi.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, hozirda dunyo bo‘yicha 1,2 milliard tonnadan ortiq sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lib, uning 898,2 million tonnasi Osiyo davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Respublikamizda ham yiliga o‘rtacha 8,5 million tonnaga yaqin sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi.

Ko‘rgazmada viloyatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan bog‘liq taqdimotlar o‘tkazildi.

– Samarqandda xorijiy investorlarga investitsiya va qo‘shma biznesni rivojlantirish uchun qulay muhit va infratuzilma yaratilgan, – dedi viloyat hokimi o‘rinbosari Shunqor Xudoyberdiyev. – Xususan, biz xitoylik tadbirkorlar bilan logistika, elektrotexnika, kimyo, farmatsevtika, zamonaviy qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish tarafdorimiz. Bugungi kunda viloyatimizning Toyloq, Samarqand, Jomboy, Bulung‘ur va Oqdaryo tumanlari meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan. Bu hududlarda 40 dan ortiq sabzavot ekin turlari

Noan‘anaviy sabzavot ekinlari yetishtiriladi



ekilmoqda. Endilikda biz inson salomatligi uchun qimmatli xususiyatlarga ega bo‘lgan va jahonda talab yuqori bo‘lgan noan‘anaviy sabzavot ekinlari, dorivor o‘simliklarni ekishni yo‘lga qo‘yishga e‘tibor qaratyapmiz. Xususan, hozirda sparja, bamiya, mangold, artishok, batat, Bryussel

karamini o‘zimizning tuproq-iqlim sharoitida yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqilib, bu mahsulotlar ichki bozor bilan birga xorijga sotilmoqda.

Viloyatimiz vakillari Chjetszyan va Szyansu provinsiylarining bir qator shaharlarida joylashgan sanoat zonalarini faoliyati bilan ham tanishmoqda.

Kattaqo‘rg‘onlik yoshlarning qanday muammolari bor?

Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi boshlig‘i A.Axmedovning navbatdagi “Rahbar va yoshlar uchrashuvi” Kattaqo‘rg‘on tumanida o‘tkazildi.



Viloyat hokimining o‘rinbosari H.To‘xtayev, viloyat prokurori M.Esh-nazarov, sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar mas‘ullari ishtirokida o‘tkazilgan uchrashuvda 100 nafardan ziyod

guruh faoliyatiga chek qo‘yilgan, - dedi A.Axmedov. - Achinarlisi, ular orasida talabalar ham bo‘lgan. Hozir dunyoda kuzatilayotgan globallashuvdan xulosa chiqarib, yurtimizda yoshlarning bilim

yoshlarning murojaatlari eshitildi.

Dastlab boshqarma boshlig‘i yoshlarga murojaat qilib, dunyoning turli mamlakatlarida sodir etilayotgan terrorchilik va ekstremistik harakatlardan ogoh bo‘lish, zarurligini ta‘kidlandi.

– 2022-yilda Toshkent shahrida terakt sodir etishni rejalashtirgan jinoyatkorlar qo‘lga olingan, - dedi A.Axmedov. - Achinarlisi, ular orasida talabalar ham bo‘lgan. Hozir dunyoda kuzatilayotgan globallashuvdan xulosa chiqarib, yurtimizda yoshlarning bilim

olishi, sport bilan shug‘ullanishi, til, IT sohasi va kasb-hunar o‘rganishi uchun yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish kerak.

Uchrashuvda yoshlar asosan tadbirkorlik qilish, yer ajratish, imtiyozli kredit, IT sohasini rivojlantirish, sport maydonchalari tashkil etish, o‘quv markazi ochish masalalari yuzasidan murojaat qildi.

Tumanning Jizmonsoy mahallasida yashovchi Nurullo Tursunov chorvachilikda tajribasi borligi va sohani rivojlantirish uchun biznes reja ishlab chiqqanini aytib, imtiyozli kredit ajratishni so‘radi. Murojaat tuman mas‘ullari tomonidan o‘rganilib, ijobiy hal etiladigan bo‘ldi.

Nayman mahallasidan kelgan Shuhrat Eshpo‘latov esa o‘zi va oila a‘zolari ishsizligini aytib, dehqon xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun yer so‘radi. Unga hokimlik xazirasidagi bo‘sh yer auksion orqali ajratilishi ma‘lum qilindi.

Muloqot davomida tumanda ishsiz, migratsiyadagi va probatsiya ro‘yxatida turgan, tarbiyasi og‘ir yoshlar bilan ishlashda xato va kamchiliklar kuza-tilayotgani qayd etilib, muammolarni vaqtda bartaraf qilish yuzasidan tuman mas‘ullariga topshiriqlar berildi.

F.RO‘ZIBOYEV.

TAYINLOV

Nasimov Azizbek Azimovich - viloyat oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga;

Qodirov Nurali Usmonaliyevich - viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga tayinlandi.

Bugun ko‘pchilikni elektr energiyasi va tabiiy gazning iste‘mol narxlarini oshirilishi sabablari qiziqirtirmoqda.

Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, joriy yilning 1-maydan boshlab aholi uchun elektr energiyasi tariflari belgilandi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy me‘yor tizimi joriy etildi.

Xo‘sh, nima uchun narxlar oshdi? Shu paytgacha elektr energiyasi va tabiiy gaz aholiga tannarxidan past qiymatda yetkazib berilgan. Bir yilda o‘rtacha 1,15 milliard dollar, ya‘ni 14,5 trilion so‘m mablag‘ aholi xonadonlarining energetik ehtiyojini subsidiyalash uchun sarflanib kelindi. Bu esa viloyatimizda o‘rtacha 50 milliard so‘mni tashkil etgan. Demak, bir oyda o‘rtacha 200 kVt/soat elektr energiyasi iste‘mol qilinganda ham davlat amalda har bir iste‘molchi uchun 135 ming so‘mdan subsidiya bermoqda. Mamlakatdagi iste‘molchilar soni 7,4 millionni, viloyatimizda esa 882 ming nafarni tashkil etadi.

Tan olish kerak, aholi uchun belgilangan 295 so‘mlik tarif boshqa davlatlar

Tejamkorlik ta‘minlanadi

bilan solishtirganda 230 ta davlat ichida eng past tarifli 15 ta davlat qatorida turadi. Ya‘ni, biznikiga nisbatan ham pastroq tarifga ega Butan, Iroq, Suriya, Sudan, Liviya, Efiopiya kabi davlatlar bor. Solishtirish uchun qo‘shni Qozog‘istonda oyiga o‘rtacha 300 kVt.soat elektr energiyasini ishlatuvchi xonadon har bir kVt.soat uchun o‘rtacha 790 so‘m to‘laydi. Ko‘rinib turibdiki, amaldagi tariflar haqiqiy tannarxni qoplamaydi va soha subsidiyalari evaziga faoliyat yuritmoqda. Subsidiya esa davlat budjetidan energetika sohasida yangi ishlab chiqarish va uzatish quvvatlarini yaratish uchun beriladi. Subsidiyalar berilishi to‘xtatilsa, tarmoqlar yangilanmaydi, elektr energiyasini ishlab chiqarish ko‘paymaydi, uzilishlar soni va muddati kundan-kunga ortib boraveradi. Subsidiyalar asosan aholi tomonidan iste‘mol qilingan elektr energiyasining amaldagi tariflari va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovutni qoplash uchun beriladi.

Narxlarini o‘zgartirishni taqozo qilayotgan asosiy sabab elektr energiya ishlab chiqarish, tabiiy gaz qazib olish korxonalari va yetkazib berish tarmoqlarining eskirgani bilan bog‘liq. Ularni yangilash kerak. Shu

bilan birga, issiqlik elektr stansiyalarida foydali ish koeffitsiyenti 25-35 foiz. Ya‘ni, bu juda past ko‘rsatkich va mahsulot tannarxining oshishiga olib keladigan omillardan biri. Ishlab chiqarish va yetkazib berishdagi yo‘qotilishlarning ko‘pligidan ham tannarx oshadi.

Elektr energiyasining amaldagi tariflari sohadagi xarajatlarning bor-yo‘g‘i 66 foizini qoplamoqda. Masalan, ishlab chiqarishdan yetkazib berishgacha 100 so‘m xarajat qilinsa, iste‘molchidan 66 so‘mgina qaytarib olinmoqda. O‘rtadagi farq shartli subsidiya sifatida davlat tomonidan qoplab berilyapti.

Tabiiy gazdagi ko‘rsatkich esa bundan ham yomonroq – 46 foizni tashkil qiladi. Bunda 100 so‘m xarajat qilinsa, 46 so‘mi qaytmog‘da, qolganini davlat to‘lamoqda. Demak, tabiiy gazdan ko‘rilayotgan zarar ko‘proq bo‘layotir. Shuning uchun ijtimoiy me‘yordan ortiq iste‘mol qilingan elektr energiyasi narxi 2 barobar, tabiiy gazniki 3 barobar baland bo‘ladi.

Iste‘mol me‘yori - bu chegara degani emas. Ya‘ni, faqat ishlatilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz uchun davlat tomonidan ajratilgan subsidiyaga chega-



ra o‘rnatiladi. Aynan nima uchun elektr energiyasiga ijtimoiy me‘yor 200 kVt soat qilib belgilandi? Chunki respublikamizdagi iste‘molchilarning 80 foizi bir oyda 200 kVt soatgacha tok ishlatadi. Qolgan 20 foizi esa jami elektrning 70 foizini iste‘mol qiladi. Bu davlat tomonidan berilayotgan subsidiyalarning noto‘g‘ri yetib borayotganini ko‘rsatib turibdi va subsidiyadan unga muhtoj bo‘lmagan odamlar ham foydalanmoqda.

Viloyatda elektr energiyasi yetkazib berishdagi uzilishlar muammosi 2027-2030-yillargacha to‘liq hal etiladi.

Dolzarb mavzu

Tizimda eshik ketganlik darajasi qariyb 40 foizni tashkil qiladi. O‘tgan yili ma‘nan eshikni 20 ming kilometrlik elektr tarmoqlari yangilandi. 400 dan ziyod eski transformatorlar almasildi. O‘tgan yili ajratilgan 50 milliard so‘m mablag‘ga sohaning 20 foizida modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Shu mablag‘larga 12 ta podstantsiya ta‘mirlanib, yangilari qurilgan. Lekin baribir sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar nihoyatda ko‘p. Tizimdagi korxonalarga sarflab kelingan mablag‘lar sohani modernizatsiya qilishga yo‘naltirilsa, ancha ishni amalga oshirish mumkin. Qolaversa, subsidiyalashga berilgan mablag‘lar hisobidan ijtimoiy soha obyektlarini qurish, maktab, bog‘cha hamda tibbiyot muassasalarining ta‘minotini yaxshilash mumkin bo‘ladi.

Demak, tarif narxlarining erkin bozor tamoyillari asosida islohot qilinishi nafaqat infratuzilmani modernizatsiya qilish, balki iste‘mol madaniyatining shakllanishiga yo‘l ochadi. Har bir fuqaro o‘zi ishlatayotgan elektr energiyasi hisobini yuritib borsa, isrofgarchilikning oldi olinib, tejamkorlik ta‘minlanadi.

Umid NAZAROV,
“Hududiy elektr tarmoqlari”
aksiyadorlik jamiyati Samarqand filiali direktori.

Samarqand davlat universitetida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Yadro fizikasi instituti, SamDU muhandislik fizikasi instituti hamkorligida "Fizika-2024" uchinchi xalqaro forumi boshlandi.

Fizikaning dolzarb masalalari olimlar nigohida



Materiya va koinotning tuzilishi, kondensirlangan holat fizikasi, amaliy fizika kabi bir qator yo'nalishlarda hozirgi zamon tendensiyalari, dunyo miqyosida erishilgan yutuqlar bilan tanishish hamda xalqaro ilmiy aloqalarni yanada ham kengaytirish maqsadida tashkil etilgan anjumanda mamlakatimiz fizik olimlari va yosh tadqiqotchilar bilan birga AQSh, Ozarbayjon, Ruminiya, Rossiya, Belarus, Qozog'iston va boshqa davlatlardan 170 nafarga yaqin tanikli akademik va professor, fizika institutlari rahbarlari ishtirok etmoqda.

Forumning ochilish marosimida Samarqand davlat universiteti rektori Rustam Xolmurodov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Behzod Yo'ldoshev, Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi Vladislav Xomich va boshqalar so'zga chiqib, O'zbekiston olimlari va mutaxassislarining fizikaning turli sohalarida amalga oshirayotgan ilmiy ishlari va ularning natijalariga e'tibor qaratdi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida fizika fanining elementar zarrachalar fizikasi, yadro fizikasi, astronomiya, qattiq jismlar fizikasi, elektronika, optika, lazer fizikasi kabi soxalarida fundamental va amaliy ilmiy ishlar olib boruvchi bir qator ilmiy tekshirish institutlari faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, yadro fizikasi instituti nafaqat respublikamiz, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy tekshirish maskani hisoblanadi. Institutning ilmiy bo'linmalari va tadqiqot yadro reaktori, siklotron, elektron tezlatkichi, gamma qurilmasi va neytron generatori kabi noyob obyektlari bazasida hozirgi zamon fan va texnikasining istiqbolli yo'nalishlarini qamrab olgan fundamental va amaliy izlanishlar olib boriladi. Institut dunyodagi salohiyatli ilmiy markazlari bilan aloqalar o'rnatgan.

– 23-25-aprel kunlari o'tka-

zilishi rejalashtirilgan mazkur fiziklar forumi an'anaviy bo'lib, birinchi forum Toshkent shahrida Fanlar akademiyasi yadro fizikasi institutida, ikkinchisi Namangan davlat universitetida o'tkazilgandi va uchinchi forum uchun Samarqand tanlandi, – deydi Yadro fizikasi instituti direktori Ilhom Sodiqov. – Bu bejiz emas, albatta. Chunki mazkur universitetda fizika fani o'qitilishi bilan birga ilmiy tadqiqotlar olib boriladi, yadro fizikasi laboratoriyasi faoliyat ko'rsatadi va biz yaqin hamkorlikda ishlaymiz. Bu galgi forum ham fizika fanini rivojlantirish, ushbu fan sohasida jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot va amaliy ishlarni o'rganish ham chet eldagi hamkasblarimiz bilan tajriba almashishga qaratilgan.

Forumga qadar uning dasturi va ma'ruzalar tezislari to'plami nashr qilindi. Yalpi majlislarda 50 ta ma'ruza eshitisli, poster majlislarda esa 80 dan ortiq ma'ruza muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

– "Fizika-2024" forumi Samarqandda tashkil etilganidan xursandmiz, tadbir tufayli bu qadimiy shahardagi keyingi yangilik va o'zgarishlar bilan tanishaymiz, – deydi Ozarbayjonning Radiatsiya muammolari instituti direktori Isom Mustafoyev. – Biz Samarqand davlat universiteti fizik olimlarining ilmiy tadqiqotlari, erishayotgan natijalarini ilmiy jurnallar, internet nashrlar orqali kuzatib boramiz. Bugun esa ushbu ishlarni bajarayotgan ilmiy xodimlar bilan uchrashish, ular bilan tajriba almashish imkoniyati yaratildi. Ummun, O'zbekistonda yadro fizikasi bo'yicha katta tajriba to'plangan va bu borada hamkorlikda ishlash barchamiz uchun foydali bo'ladi, deb o'ylayman.

Forum davomida fizik olim va mutaxassislarning ilmiy izlanishlarida kooperatsiya masalasi ham muhokama qilindi.

Mahfuza Qayumova tadbirkorlikning barcha bosqichlaridan o'tgan. U bugun nomi ham, ko'lami ham juda katta klasterni boshqarishgacha bo'lgan jarayonlarda qanday qiyinchiliklarni ko'rdi, nimalarni boshidan o'tkazdi, o'ziga va yaqinlariga ayon.

Mustaqillikning ilk yillaridayoq tadbirkorlikka yo'l endi ochilgan payti juda ko'pchilik o'zini savdoga urganini yaxshi eslaymiz. Kimdir shu oldi-sotdi ishini yana uzoq yillar davom ettirdi. Ammo yo'q joydan yangi narsa yaratish, yeringa, mulkimga o'zing egalik qilib ish yuritish kishidan tavakkallik bilan birga tashabbuskorlik, tadbirlilikni ham talab etadi. Mahfuza Qayumova esa tabiatan tadbirlir. Yo'qsa... Keling, bir boshidan boshlaylik.

Aslida o'shanda, hali boshqa yurtlardan yuk olib kelib yurgan paytlari shifokorlar unga qo'rqinchli tashxis qo'yadi: "Juda kam umringiz qolgan, o'sma xavfli ekan, uni to'xtatish mushkul ish..."

– Avvaliga juda tushkun holatga tushdim, buni hozir eslasam, kulgim ham keladi-yu lekin bu gapni eshitish haqiqatan og'ir edi, – deya eslaydi Mahfuza opa o'sha yillarni. – Kim bilsin, balki o'sha 2000-yillarda hududlarda meditsinamiz juda yaxshi rivojlanmagan ekanmi, harholda shu tashxisdan keyin hatto turmush o'rtog'imga mendan keyin kimga uylanishi mumkinligicha aytib qo'yganiman. Lekin keyin kuch topib, "kurashga chog'landim", Poytaxtgacha bordim, barcha davo choralarini ko'rdik. Ishqilib, Xudoning inoyatimi, kasallikdan forig' bo'ldim. To'g'ri, 2017-yilda u yana qaytaladi, ammo biz ham ortga chekinmadik. Nima bo'lgan taqdirda ham bu dard menga ikkinchi guruh nogironi degan yorliqni bergan bo'lsa-da, undan norozi emasman. Ehtimol, men shu kasallik bilan kurashib, yashashga, ishlashga, yaratuvchanlikka ishtiyoqim oshgandir. Tadbirkorlikning birinchi qadamidayoq ilk omadsizlikdan o'zini o'nglab ketolmaganlar qancha? Hammasini boshidan boshlab, yirik xo'jaliklarga tashkil qilish va bugun ham qator reja va maqsadlar bilan o'tirishimga ham shu dard sababchi bo'lgandir balki.

Mahfuza Qayumova 2011-yilda Navoiy viloyati Karmana tumanida bir gektar yerda issiqxona tashkil qilib, bu ishning to'liq hadisini oladi. 2019-yilda esa o'zi tug'ilib o'sgan Paxtachi tumanda 2 gektar yerda issiqxona tashkil qiladi. Paxtachining eng chekka qishlog'i Burqutda pomidor, bodring va boshqa bir qator ekinlardan daromad topa boshlaydi. O'sha yillar viloyat hokimining paxtachilik tadbirkorlar bilan uchrashuvida "Paxtachining eng chekka hududini bog' qilishga bel bog'laganman. Hademay bu yerga mahsulotlarimizni olish uchun xorijdan ham furalar kela boshlaydi. Yo'llarimiz esa qishda loy bo'lsa, mashina o'tishi ham qiyinlashib qoladi. Shu yo'limizga ozroq yordam bering", deya iltimos bilan chiqadi. Haqiqatan ham oradan ko'p vaqt o'tmay, cho'l hudud obod bo'ldi. Hokimlik yo'l masalasida qarashdi, tadbirkor ham so'zida turdi. Past rentabelli yerda avvaliga

Burqutni barxatga aylantirayotgan ayol

yirik issiqxonalar, keyin o'nga yaqin sohani qamrab oluvchi klaster tashkil etdi.

– "Paxtachi agrohamkor tomorqa xizmati" klasterimiz 60 gektar yerga ega bo'lib, 12 yo'nalishda ish olib boradi, – deya suhbatni davom ettiradi Mahfuza Qayumova.

– Xabaringiz bor, Prezidentimiz aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha bir necha qarorlar qabul qildi, bu bo'yicha bir nechta yo'nalishda tizimli ishlar olib borilyapti. Qishloq hududlardagi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bizning klasterimiz aholiga to'g'ridan-to'g'ri ko'mak berishda xizmat ko'rsatadi. Tumandagi 32 ta mahalla, 16 mingga yaqin aholi bilan ishlaymiz. Mahalladagi hokim yordamchilari bilan hamkorlikda ehtiyojmand aholi, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda ularni u yoki bu sohaga yo'naltiramiz. Misol uchun, tomorqachilik, parrandachilik, bog'dorchilik, quyonchilik, chorvachilik, baliqchilik, issiqxona, asalarichilik, texnika xizmati kabi yo'nalishlarimiz bor. Bularning barchasi bo'yicha o'quv tajriba uchastkalarimiz bor. Aholiga jamoaviy, agar zarurat tug'ilganda, individual tarzda bu sohalar bo'yicha o'quvlar tashkil etamiz. Keyinroq ular ish boshlashi uchun o'zlari qiziqish bildirgan yo'nalishda sharoitlarni yaratib beramiz, mahsulotlarini o'zimiz sotib olamiz. Misol uchun, o'tgan yilning o'zida 80 ga yaqin xonadonga issiqxona qurib berdik, unda ishlash tartibini o'rgatdik, bugun shu orqali ularning ro'zg'origa daromad kelyapti.

Yaqinda tumanning Mirza Salimiy mahallasida tikuvchilik sexi tashkil etdik. Tasavvur qiling, chekka bir qishloqda 20 ga yaqin qiz sexda ikki smenada, 150 nafarga yaqini uyida, kasanachilik asosida mehnat qilyapti, daromad topyapti.

Klaster tizimini tashkil qilish oson kechmadi, albatta. Buning uchun avvalo, mamlakatimiz rahbari tomonidan qonunchiligimizda qator imkoniyatlar berildi. Qolaversa, o'zim Germaniya, Polsha, Chexiya kabi davlatlarda bo'lib, ularning qishloq xo'jaligidagi tajribalari bilan tanishganman. Bugun shukrki, shu tajribalarni amalda qo'llash uchun hamma sharoit bor, faqat harakat va ishlash kerak. To'g'ri, tadbirkorlik hech qachon oson kechmagan. Shunday fursatlarni boshdan kechirdimki, mevaga kelgan o'nlab gektar bog'larimizdan bir kunda ayrilgan paytlarimiz ham bo'ldi. Ammo bu hayot tugadi,

degani emas-ku, harakat qilsang, to'xtamasang, albatta, yaxshi tomonga o'zgarish bo'lar ekan.

– To'g'risi, ro'zg'orimiz ancha yuqalashib qolgach, turmush o'rtog'im bilan Toshkentga-mi, Rossiyagami ishga ketamiz, deb tayyorlanib turgandik, – deya gapirib beradi shu qishloqda yashovchi Tursunoy Xusheva. – Mahfuza opa shunday kayfiyatda yurgan paytimizda jonimizga oro kirdi. Boshqa yurtlarda qiyinlab, farzandlarni ham sarson qilib nima qilasizlar, shu yerda birgalashib mehnat qilinglar, barakasi bo'ladi, dedilar. Keyin o'zlari parrandachilik yo'nalishini tavsiya qildilar. Jo'larni o'zlaridan sotib oldik, barcha aytgan maslahatlariga amal qilib, kattartirib, yana o'zlariga sotaverdik. Kinga sotamiz, deb mijoz izlab yurmadi, ozuqasini qayerdan olamiz deb sarson bo'lmadi. Hozir parrandachilik bilan birga baliqchilikni ham yo'lga qo'ydik. Uy-joyimiz ham yo'q edi, endi ro'zg'orimiz asta sekinlik bilan izga tushyapti.

Mahfuza Qayumova bu zahmatlari evaziga 2023-yilda "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi. Bu mukofot unga yana kuch berdi, rejalari sanog'i ko'paydi.

– Vodiyan issiqxonada avatar uzum, bozorga erta chiqadigan gilos yetishtirishni o'rganib kelgandim, uni ham yo'lga qo'ymoqchiman. Ehe, hali qancha g'oyalimiz bor... – deydi opa.

Burqutdagi bu klaster burgutday parvozni ko'zlagan shekilli, opa rejalari haqida gapirarkan, "qaniydi, shu imkoniyatlar o'n yil avval bo'lsaydi-ya", deb tez-tez takrorlab turdi.

Gulruh MO'MINOVA.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, joriy yilning **YANVAR-MART** oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasining **37,8** foiz ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi **4,2** foizga kamaygan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan iqtisodiy vaziyatni baholash uchun o'tkazilgan tadqiqotda joriy yilning 1-yanvaridan 29-fevraligacha bo'lgan davrda tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,9 foizga o'sgani kuzatilgan.

Yangi subyektlar ko'p, soliqda esa o'sish yo'q

Kredit berish hajmining o'sishi bo'yicha Samarqand (17,2 foiz), Navoiy (38,2 foiz) viloyatidan keyingi o'rinni band qilgan.



Tovarlarni eksporti (hajmi 2022-yilning mos davriga nisbatan 11,0 foiz o'sishida Samarqand (23,9 foiz) dastlabki to'rttalikka (Navoiy -75 foiz, Xorazm-36,3 foiz, Qashqadaryo-29,5 foiz) kirgan. Tahlil qilingan davrda (yanvar-fevral) 12837 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan. Ularning eng ko'p soni Samarqand (1235), Farg'ona (1118), Toshkent (1 046) viloyatlarida ro'yxatga olingan.



Hovliga sabzi ekib, 80–100 MILLION SO'M daromad qilish mumkin

Toyloq tumanining Talli ota mahallasida yashovchi Habibullo Nazarovning aytishicha, hammasi juda oddiy: kech kuzda issiqxonada sabzi donalab ekiladi. Bir sotixga o'n mingta sabzi urug'i to'g'ri keladi. Agar 10 sotixda parvarish qilinsa va hammasi unib chiqsa, 100 mingta sabzi. Agar 20 foizi nobud bo'lgan taqdirda ham 80 mingta sabzi. Bu esa 80-100 million so'm daromad. Xarajati kam – issiqxonalar tabiiy, qo'shimcha itish shartmas. Faqat ayrimlarga ozroq yoqmaydigan tomoni bor, mehnati oson emas...

Mazkur mahalladagi 864 ta xonadondan 520 tasida xuddi shu tarzda sabzi yetishtiriladi.

Baxtiyor MUSTANOV surat-lavhasi.



Narpayda Xitoy texnologiyasi



Prezidentimizning 2023-yil 15-dekabrda "Paxtachilikda urug'chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, paxtachilikda innovatsion agrotexnologiyalarni qo'llash uchun bir hududda 500 gektar dala maydonlari ajratilgan.

Qarorga muvofiq, viloyatimizning Narpay tumanida chigit ekish ishlari yuqori hosildor navlar tanlash, yog'ingarchilikning salbiy ta'sirining oldini olish va parvarishlash agrotexnologiyalari ilmiy asoslangan tavsiyalar asosida tashkil etildi.

Jumladan, tumanda Xitoydan keltirilgan "Xinlu Zao 78" g'o'za navining elita avlodi Xitoy texnologiyasi asosida ekilmoqda.

April oyida kuchli yomg'ir yog'ishi oqibatida chigit ekilgan maydonlarda qatqaloqni yumshatish maqsadida motigalar yordamida ishlov berish tashkil etilmoqda.

A.NARBAYEV,
Prezident huzuridagi paxtachilik kengashining
Narpay tumani ishchi guruhi rahbari.

25-aprel - Butun dunyo
bezgak kasalligiga qarshi
kurashish kuni

Issiq iqlimli mamlakatlardan qaytgach

shifokoringizga
ma'lum qiling

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2007-yil 23-maydagi 60-sessiyasida 25-aprel – “Butun dunyo bezgak kasalligiga qarshi kurashish kuni” deb e'lon qilingan edi. Bezgak dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida qayd etilgan. Keyingi yillarda Yevropa va Osiyoning qator davlatlarida, jumladan, o'tmishda u yo'q qilingan Tojikiston, Gruziya, Ozarbayjon, Qirg'izistonda ham uchramoqda.

Bezgakka qarshi kurashishda 2002-yilda BMT tashabbusi bilan tashkil etilgan OITS, sil va bezgakka qarshi kurash global fondi katta hissa qo'shmoqda. Global fond davlatlarga bu kasallikka qarshi kurash bo'yicha milliy dasturlarni amaliyotga joriy etishda zarur moliyaviy ko'mak bermoqda. Keyingi o'n yillikda dunyoda bezgakka qarshi kurash bo'yicha ko'plab dasturlarning samarali amalga oshirilishi natijasida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ham kasallik sezilarli kamayishiga erishildi.

Alohida ta'kidlash lozimki, bezgakni faqatgina tibbiy xizmat yordamida yengish juda qiyin. Buning uchun barcha tashkilot va muassasalar, aholining faolligi lozim. Ushbu kasallikka chalinmaslik uchun uning profilaktikasidan xabardor bo'lish zarur. Bezgak asosan chivinlar mavjud joylarda tarqaladi. Shuning uchun ularning ko'payishi va chiqishiga qarshi kurash choralarini qo'llaniladi.

Qolaversa, kishi tana harorati ko'tarilganda yoki bezgakning boshqa belgilari paydo bo'lganda albatta, tibbiy yordamga murojaat qilishi kerak. To'g'ri tashxis uchun qon tahlili o'tkaziladi. Keyingi uch yilda Tojikistonga, Osiyo va Afrikaning issiq iqlimli mamlakatlariga borib kelgan bo'lsangiz, bu haqda shifokoringizga albatta, ma'lum qiling. Hozirgi kunda bezgakni davolash uchun samarali dori vositalari mavjud. Faqatgina o'z vaqtida va to'g'ri davolash kasallikning og'ir oqibatlari oldini oladi.

Z.MO'MINOV,
viloyat sanitariya-
epidemiologik osoyishtalik
va jamoat salomatligi
boshqarmasi boshlig'i
o'rinbosari.

Har bir jamiyatning ke-
lajagi ta'lim tizimining
qay darajada rivojlan-
ganligi bilan bog'liq.
Shuning uchun ham
mamlakatimizda uzluk-
siz ta'lim tizimini isloh
qilish va takomillashti-
rish, ilg'or pedagogik va
axborot texnologiyalarini
joriy qilish davlat siyosati
darajasiga ko'tarildi.

Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishni fan va ta'limning rivojlanishiga olib keladigan muhim omillardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha ko'plab farmon va qarorlar qabul qilinib, ularning ta'lim muassasalariga tatbiq etilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Ta'lim sifatini oshirish:

MUAMMO VA YECHIMLAR

Joriy yilning 2-3-may kunlari Samarqand davlat chet tillar institutida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan Ta'lim

sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning

maqsadi ayni shu masalalarga qaratilgan. Ingliz tili fakultetining innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasini tomonidan tashkil etilayotgan anjumanda xorijiy til ta'limi, xorijiy tillarni o'rgatishning samarali usullari, ularning turlari va tadqiq qilish metodlari, zamonaviy o'qitish metodikasi kabi masalalar muhokama etiladi. Shuningdek, konferensiya-da masofaviy ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish usullarining dolzarb muammolari, ta'limda innovatsion metodikalarni rivojlantirishning global yechimlari, zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuvlar va yangi tendensiyalar, fanlarni o'qitishda samarali metodlardan foydalanishning tamoyillari kabi mavzular alohida shu balarda muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Xalqaro anjuman

Anjumanda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, maktab-gacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi muassasalarning yuzdan ziyod malakali chet tili fani o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Hindiston, Turkiya, Indoneziya, Ispaniya, Italiya, AQSh hamda Janubiy Koreya davlatlari universitetlari vakillari ishtirok etishi kutilmoqda.

Umumiy yalpi yig'ilish, shu balar yig'ilishi va kichik guruhlarda ma'ruza o'qigan ishtirokchilarga sertifikat taqdim etiladi.

G.BOLTAQULOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogikasi kafedrasini mudiri.

Vazir institut faoliyati bilan tanishdi

Qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bo'lib, muassasa faoliyati bilan tanishdi, o'qituvchi va yoshlar bilan uchrashdi.

Vazir Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligi tizimi uchun tayyor kadrlar yetishtirib beradigan mazkur ta'lim dargohidagi sharoitlar bilan tanishar ekan, kadrlarni tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi, bevosita ilmiy amaliyotga joriy etish vazifasini bajaradigan, dala maydonlarida qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlash eng muhim vazifa ekanligini ta'kidladi.

Shundan so'ng vazir Janubiy Koreya Qishloq xo'jaligi va hududlarni rivojlantirish vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan kartoshkachilik salohi-



yatini yuksaltirishga qaratilgan loyiha mutasaddilari bilan uchrashdi. O'zbekiston iqlim sharoitiga mos gidroponika usulida kartoshka yetishtirish istiqbolini muhokama qildi. Institutda mavjud muammolar va ularning yechimiga qaratilgan takliflar bilan tanishib, kerakli ko'rsatmalar berdi.

Mehmonlar institut hududida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarida qatnashib, daraxt ko'chatlari ekishdi.

Ishtixonda xitoylik agronom chigit ekmoqda

Joriy yilda qancha maydonga suv tejovchi texnologiya joriy etiladi, agrar tarmoqda qanday o'zgarishlar bo'ladi, g'alla o'rimiga tayyorgarlik ishlari qay ahvolda? O'zagroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi tomonidan ishtixon tumaniga uyushtirilgan press-turda shu kabi savollarga javob oldik.

Joriy yilda tumanimizda 8370 gektar maydonda chigit ekish rejalashtirilgan, - deydi O'zagroinspeksiya tuman bo'limi bosh mutaxassisi Oybek Safarov. - Buning uchun 124 dona chigit ekish seayalkasi, 20 ta lazerli yer tekislagich va boshqa texnikalar jalb etilgan. Bugungacha 7700 gektar maydonda chigit ekish ishlari yakunlandi. Tumanidagi "Ishtixon oltin yerlari" fermer xo'jaligida

320 gektar maydonda Xitoy texnologiyasi asosida plyonka ostiga Chin o'lkasidan keltirilgan yangi navdagi chigit ekilmoqda. Ekish jarayonini xitoylik agronom Luan Sin Min boshqarmoqda. Mutaxassisning ta'kidlashicha, ularning usulida nafaqat suv tejalishiga erishiladi, balki hosildorlik ham ortadi.

- Bu yilgi chigit ekish mavsumida viloyat bo'yicha 1544 ta chopiq traktori,

shuncha kultivator, 865 ta seayalka, 207 ta yer tekislagich, 1047 ta tishli boronadan foydalanilmoqda, - deydi O'zagroinspeksiyaning viloyat boshqarmasi shu'ba boshlig'i Sanjar Qurbonov. - G'alla o'rish mavsumida esa 259 dona turli rumdagi yuqori unumli don o'rish kombaynlari va texnikalar jalb etilmoqda. Viloyat bo'yicha 45 ta lazerli yer tekislagich uskunasi olingan bo'lib, yil yakunigacha yana 60 ta texnika xarid qilinishi rejalashtirilgan. Zamonaviy texnikalar yer holatini yaxshilash, hosil unumdorligini oshirish, eng muhimi, suv tejalishiga xizmat qilmoqda.

Tumandagi "Maroqand Sifat Tekstil" MChJga qarashli mashina-traktor parkida joriy yil g'alla o'rim-yig'imida ishtirok etadigan 16 dona, paxta terimi uchun 6 dona yuqori unumli "John-Deere 9970" rusumli mashinalar mavsumga shay holatga keltirilgan.

Husan ELTOYEV.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida "Ma'rifat ulashib" loyihasi doirasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Mamatqul Hazratqulov va taniqli ijodkorlar Maqsd Jonixonov hamda Zuhro Eshonqulova ishtirokida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.

Ma'rifat ulashgan ijodkorlar

Dastlab universitet talaba-yoshlari bilan uchrashuvda bugungi adabiy jarayon, kitobxonlik madaniyati va yoshlarning adabiyotga munosabati haqida so'z yuritildi. Ijodkorlar o'zlarining talabalik davrlari va badiiy asarlari haqida gapirib berdilar. Shuningdek, talabalarni qiziqtirgan savollarga javob qaytarildi.

Mehmonlar o'z dastxatlari tushirilgan sara asarlarini universitet kutubxonasiga hamda faol talaba-yoshlarga tuhfa qildilar.

Shundan so'ng tadbir qatnashchilari "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida universitet hududida ko'chat o'tqazdi. O'quv muassasasidagi "Besh muhim tashabbus" markazi qoshida tashkil etilgan "Zakovat" va "Bahs-munozara" klublari faoliyati bilan tanishib, talabalar bilan birga intellektual o'yinda ishtirok etdilar.

- Men bir gapni o'zimning nabilarimga ham, boshqa yoshlarga ham ko'p aytaman - sizlarning o'qishingiz, puxta bilim olib, yaxshi mutaxassis bo'lishingiz uchun

yaratilgan sharoit, imkoniyatlar biz uchun orzu bo'lgan, shu jihatdan sizlarga havas qilaman, - dedi Mamatqul Hazratqulov. - Bu balandparvoz gap emas, haqiqat. Va bundan samarali foydalangan erish-qizlarning qanday natijalarga erishayotgani ham barchangizga yaxshi ma'lum. Demogchimanki, yoshlikning, talabalik davrining qadriga yeting, shu paytda o'rganingiz, egallagan bilimingiz sizga bir umr asqotadi.

Loyiha doirasida ijodkorlar universitet vakillari bilan birgalikda Jomboy tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar bilan ijodiy uchrashuvlarda qatnashdi.

Yoshlar bilan suhbat talabalar turarjoyida davom etdi. Poytaxtdan kelgan ijodkorlar talabalarining yashash sharoiti, orzu-intilishlari bilan qiziqib, ularga zarur tavsiya va maslahatlar berdilar. Kechki payt gulxan atrofidagi ijodiy uchrashuv va muxoira ham uzoq vaqt davom etdi.

Rustam HAYITOV.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahridagi "FBF BOOKING" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 310895266) o'zining barcha huquq va majburiyatlari (aktiv va passivlari) bilan uning huquqiy vorisi hisoblangan "FBF TOURIZM" mas'uliyati cheklangan jamiyat (STIR: 311113937) tarkibiga birlashtirilmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab, bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri Shohrux ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Muxamadiyev Fanzir Faritovichga (2020-yil 8-yanvarda vafot etgan)

tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'min-qulovich notarial idorasida marhum Umarov Abdusattor Axatovichga (2022-yil 23-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'min-qulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Suzdal-sev Valeriy Anatolevichga (2023-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xakimov Mirsaliga (1990-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga

ga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'min-qulovich notarial idorasida marhum Karimova Matluba Ganiyevnaga (2013-yil 15-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'min-qulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

BEKOR QILINADI
Sotuvchi "VOSTOK PRODUKT PULS" MCHJ nomidan Ubaydullaev T.S. va sotib oluvchi Sherqulov Bax-

tiyor Usmonovichlar o'rtasida Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 175-"S" uyidagi savdo va maishiy xizmat ko'rsatish binosi hamda yerto'la qismida joylashgan oshxona binosi, shundan yerto'la qismida joylashgan oshxona binosining bir qismi: qurilish osti maydoni 450,12 kv.m., foydali (ichki) maydoni 409,46 m.kv. uchun "Sag'diana real servis" MCHJ vositachiligida 2018-yil 20-noyabrda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish natijasida tuzilgan 28-sonli savdo bayonnomasi hamda ushbu bayonnomaga asosida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi G'afurov Jamshid Sodiqovich sotib oluvchi Xudoyarova Nargiza Ostun qizi o'rtasida Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, "Muso xonkeldi" savdo majmuasi hududidagi O blok, 14-savdo do'koni binosi uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligida 2023-yil 22-noyabrda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish natijasida tuzilgan 189-sonli savdo bayonnomasi hamda ushbu bayonnomaga asosida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat tibbiyot institutidan 2019-yil 6-aprelda Bolg'ayeva Muqaddas Abdisodikovna nomiga berilgan ro'yxat raqami 2687, QT 195 raqamli sertifikat yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "ELBEK KUMUSH" oilaviy korxonasining (STIR: 304385214) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Kattaqo'rg'on shahar drama teatri davlat musiqali drama teatriga aylantiriladimi?

Keyingi yillarda yurtimizda barcha sohalar kabi madaniyat va san'at sohasida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi uch-to'rt yilda teatr san'ati bo'yicha o'ndan ortiq Prezident farmoni va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlari qabul qilindi. Yangi teatrlar tashkil etilib, mavjudlari zamon talabi darajasida jihozlandi. Bu islohotlar samarasini bir asrlik tarixga ega Kattaqo'rg'on shahar drama teatri faoliyatida ham ko'rish mumkin.

TO'YGA MUNOSIB TUHFA

Teatrning 100 yillik yubileyi oldidan viloyat hokimligi tomonidan 800 million so'm ajratilib, teatr binosining tom qismi va isitish tizimi to'liq ta'mirlandi. Madaniyat vazirligi ajratgan 2 milliard 250 million so'm mablag'ga zarur jihozlar, asbob-uskunalar, ovoz kuchaytirish uskunolari hamda yoritish chiroqlari olingan.

- Teatrd xodimlar uchun yangi xonalar, oshxona, kichik tomosha zali, mehmonxona, teatr tarixi muzeyi, teatr arxivi, ovoz va chiroq sexlari tashkil etilib, ikkinchi qavatdagi yo'laklar, xonalar va rassomlar sexi ta'mirlangani 100 yillik yubileyga tuhfa bo'ldi, - deydi Kattaqo'rg'on shahar drama teatri direktori Botir Tugalov. - Jamoamizga nafaqat viloyat, balki mamlakat miqyosida tanilgan mashhur ijodkorlar jalb qilingani bizning eng katta yutug'imiz. Xususan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Abdug'ani Abdurazzoqov, Gulbahor Mamedova, Davron Qodirov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Noila Koranva, «Do'stlik» ordeni sohibasi Dilorom Egamova, «Shuhrat» medali sohibasi Gulnora Riza-yevalarning faoliyati, ularning yoshlarga ibrati va shu teatr uchun kamarbasta bo'lib ishlayotgani teatrd ijdodiy muvozanatni saqlab turibdi.

Teatrimizning 100 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish doirasida teatrd turli vazifalarda mehnat qilgan fidoyi insonlar nomini abadiylashtirish maqsadida 400 dan ortiq asar va ularning mualliflari hamda rol ijro etgan teatr artistlari to'g'risidagi ma'lumotlar topildi. To'plangan ma'lumotlar asosida "Nurli yo'l" deb nomlangan kitob-albom tayyorlandi. Shu bilan bir qatorda teatrimiz asoschisi, jadic namoyandalaridan Abdulhamid Majidiy, O'zbekiston xalq artistlari Shirin Meliyeva, Bahodir Yo'ldoshev hamda dramaturg Samariddin Sirojiddinovning byustini teatr muzeyiga o'rnatish va ular xotirasini abadiylashtirish uchun buyurtma berildi.

TEATR XALQARO ALOQALAR O'RNATISH BO'YICHA RESPUBLIKADA BIRINCHI

Yurtimizdagi davlat teatrlari orasida birinchi bo'lib Kattaqo'rg'on shahar drama teatri 2020-yilda qo'shni Tojikiston Respublikasining Xo'jand shahridagi Xo'jandiy teatri bilan rasmiy memorandum imzolagan. Bugunga kelib, teatr bilan ijodiy hamkorlik qilayotgan davlatlar soni 19 tani, memorandum imzolagan chet el teatrlari esa 23 tani tashkil etadi.

B.Tugalovning ma'lum qilishicha, 2020-2023-yillarda Kattaqo'rg'on shahar drama teatri ijodiy guruhi Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Gruziya, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Malayziya, Indoneziyaning bir qator shaharlarida ijodiy safarlarda bo'lib, u yerdagi davlat va nodavlat teatrlari faoliyati bilan yaqindan tanishgan hamda Kattaqo'rg'on shahar drama teatri o'rtasida memorandumlar imzolangan.

Bundan tashqari, Kattaqo'rg'on shahar drama teatri rahbariyati taklifiga ko'ra, Kanada, AQSh, Angliya, Sloveniya, Eron, Hindiston, Pokiston, Xitoy, Fransiya, Janubiy Koreya davlatlaridan teatrshunos olimlar, teatr rahbarlari Samarqandga, xususan, Kattaqo'rg'on shahriga o'zlarining hamkorlik borasidagi ijodiy rejalari bilan kelgan.

TEATR REPERTUARIDA SARA ASARLAR BOR

Teatr badiiy kengashi va ijodkorlari tomonidan teatr repertuarini zamon talabidagi asarlar bilan boyitish, tarixiy hamda jahon klassik asarlarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, yillik repertuar rejani tuzishda har bir asarning g'oyaviyligi, dolzarbligi hamda tomoshaviyligi ham hisobga olingan holda teatr sahnasida buyuk sarkardalarimiz, dunyo ilm-faniga hissa qo'shgan allomalari-miz haqida ko'plab asarlar sahnalashtirilgan.

- Keyingi yillarda Abdulla Oripov asari asosida "Sohibqiron", Alisher Navoiyning "Bahrom va Dilorom", Shuhrat Rizayev qalamiga mansub "Ona", Abdulla Avloniy asari asosida "Advokatlik osonmu?!", dramaturg Muhammadali Ergashovning "Imom Buxoriy", Chingiz Aytmatovning "Erta qaytgan turnalar" spektakllari hamda gruziyalik dramaturg Otar Katamadze qalamiga mansub "Ayyon" asari sahnalashtirildi, - deydi teatr adabiy bo'limi boshlig'i Sunnatilla Qozoqov. - Joriy yilda teatr repertuarini yanada boyitish va tarixiy asarlarni sahnalashtirish maqsadida qirg'izistonlik taniqli dramaturg, Qirg'iziston o'zbeklari jamiyati raisi, professor Begijon Ahmedova Jaloliddin Rumiy hayotiga bag'ishlangan "Rumiy" nomli pesa, ozarbayjonlik taniqli dramaturg, turkiy xalqlar tarixi bo'yicha muta-xassis, professor Iftixor Piriyevga "Buyuk Turon" nomli pesa yozish-

ga buyurtma berilib, spektakllar ustida ishlamoqda.

BESH MUHIM TASHABBUS AMALDA

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus ijrosini ta'minlash hamda yoshlarning teatr san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirish, bo'sh vaq-tini mazmunli o'tkazish maqsadida teatrd "Kitobxonlik", "Yosh rassomlar", "Aktorlik mahorati", "Milliy raqs" va "Tikuvchilik" to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, teatrga yaqin bo'lgan hududlar, jumladan, Narpay, Paxtachi va Kattaqo'rg'on tumanlari-dagi chekka qishloqlarda joylashgan maktab-larda o'quvchi-yoshlar uchun "Yosh aktyorlar" to'garaklari tashkil etilgan va to'garaklarga teatrnng tajribali aktyorlari birlashtirilgan.

IJODKORLAR

QO'LLAB-QUVVATLANMOQDA

- Teatrimizda 75 nafar xodim ishlaydi, - deydi B.Tugalov. - Xodimlarning yashash tarzi, oilaviy sharoitidan kelib chiqib, ularga yordam ko'rsatilmoqda. Jumladan, keyingi uch yilda xodimlar uchun 10 ta uy olindi, teatrd faoliyat olib borayotgan ishchi-xodim va artistlarning malakasi oshirildi, 17 nafari madaniyat va san'at yo'nalishida oliygohlarga o'qishga kirdi. Joriy yilda ustoz san'atkorlarning bir nafari Umra ziyorati-ga yuborildi. Yil oxirigacha yana eng faol 4 nafar yosh ijodkorni xorij sayohatiga, 4 nafar ustoz san'atkorini esa chet eldagi eng yaxshi sihatgohlarga dam olishlari uchun jo'natish rejalashtirilgan.

SO'NGGI YILLARDA ERISHILGAN YUTUQLAR

Teatr jamoasi yurtimizdagi barcha madaniy-ma'rifiy hamda ommaviy tadbirlar, kasb va milliy bayramlarda faol qatnashib kelmoqda. Teatrning yillik ish rejasiga muvofiq, yilda 4-5 martagacha poytaxtdan taniqli san'at ustalari taklif qilinib, madaniy-ma'rifiy hamda ommaviy tadbirlar, konsertlar tashkil etiladi. Teatr sahna ustasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G.Mamedova «Qaynona» spektaklidagi qaynona obrazi uchun "Eng yaxshi ayol roli ijrochisi" nominatsiyasini, teatr oliy toifali aktyori U.Ochilov «Sohibqiron» spektaklidagi Amir Temur roli uchun "Yilning eng faol aktyori" nominatsiyasini qo'lga kiritgan. Shuningdek, B.Tugalov, G.Mamedova hamda teatr oliy toifali aktyori Q.Ibragimov "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoniga loyiq ko'rilgan.

SHAHAR TEATRI DAVLAT TEATRIGA AYLANTIRILADI(MI?)

- Yaratilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalan-gan holda o'zbek teatr san'atini dunyoga tanitish, yurtimiz-ga sayyohlar oqimini teatr san'ati orqali ko'paytirish va Kat-taqo'rg'on shahar drama teatri negizida Kattaqo'rg'on davlat musiqali drama teatri ochish asosiy maqsadimiz, - deydi B.Tu-galov. - Bu bo'yicha taklif va loyihalar ishlab chiqilib, Madaniyat vazirligiga taqdim qilingan. Agar loyiha tasdiqlanib, maqsadimiz amalga oshsa, imkoniyatlarimiz kengayadi, xalqaro hamkorlarimiz va yurtimizga kelayotgan sayyohlar soni oshadi.

Shu maqsadda joriy yilda Samarqandda "Afrosiyob-I" xalqaro teatr san'ati festivalini o'tkazish, butun turkiy xalqlarni birlashtiruv-chi "Buyuk Turon" asarini dastlab Kattaqo'rg'on shahar drama teatri sahnasida va Registon maydonida katta masshtabda sahnalashtirish hamda bu asar bilan butun turkiy davlatlar-ga gastrol tashkil qilish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Kat-taqo'rg'on shahar drama teatri tashabbusi bilan "Samarqand teatr rassomlari" nomli ko'rgazmani dunyoning eng mash-hur muzeylarida tashkil etish, Indoneziya davlati Purnati teatri bilan hamkorlikda "Al-Buxoriy va Sukarno" spektak-lini sahnalashtirish rejalashtirilgan.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

Yaqinda shahar maktablaridan birida o'tka-zilgan ota-onalar yig'ilishida ta'lim muas-sasasi rahbari bir o'quvchini shunday ta'rifladi. Shuningdek, ayrim yuqori sinf o'quvchilarining maktab tartib-qoida-lariga, milliyligimizga mos kelmaydigan kiyimda kelishini tanqid qildi.

Har gal ota-onalar yig'ilishida qatnashganimda taklif qilinganlarning aksariyati kelmaganiga guvoh bo'lardim. Bu safar boshqacharoq bo'ldi. Maktab faollar zali ota-onalar bilan to'la. Sababi, ularni taklif qilish ham avvalgilardan kuchliroq ta'sirga ega edi: "Farzandingizning o'qishiga, xulqiga, kelajagiga e'tiborsiz ota-ona bo'lmasangiz, albatta, yig'ilishda qatnashing!"

- To'g'ri, bugun yig'ilishga taklif qilinganlarning aksariyati keldi, - dedi o'zini 10-sinf rahbari deb tanishtirgan ustoz. - Ammo baribir ko'p dars qoldiradigan, maktab tartib-qoidalariga amal qilmaydigan, sust o'zlashtiradigan o'quvchilar ota-onalarining ko'pchiligi qatnashmadi. Yig'i-lishdan so'ng bir onaxon yonimga kelib, o'zini tanishtirdi. Unga nabirasining yaxshi o'qimasligi, sochini o'stirib yurishi, kiyinishi ham talab-ga javob bermasligini aytdim. Mening gapla-rimni jimgina eshitib turgan onaxon yonida turgan nabirasiga ma'noli qarab qo'ydi. Yigit boshini egib, uzr so'radi. Yaxshi tomonga o'zgarishini aytdi.

Odatda bunday yig'ilishlarda xulqi yaxshi bo'lmagan o'quvchilar tilga olinar, a'lo baholarga o'qiyotgan, namunali o'quvchi-lar e'tirof etilib, ota-onalariga tashakkur bildiriladi. Bu galgi yig'ilish esa faqat tanqidiy ruhda o'tdi.

- Farzandiga e'tiborsiz bo'layotgan ota-onalar ogohlantirilib, ularga huquq va majburiyatlari tushuntirilyapti, - dedi maktab direktori. - Shunday ota-onalar borki, farzandining yurish-turishi, o'qishi haqida ma'lumot olish uchun maktabga kelish u yoqda tursin, o'zimiz uyiga borganimizda ham biz bilan muloqot qilishni istamaydi. Maktab - muqaddas dargoh. O'quvchi bu yerga to'yga borayot-gandek holatda kelmasligi kerak. Ularni nazorat qilishga har bir ota-ona mas'ul. Keyingi paytlar ayrim bitiruvchilarning repetitorga qatnashni bahona qilib, ko'p dars qoldirayotgani bor gap. Ayrimlari na repetitorga boradi, na maktabga keladi. Endi qo'shimcha to'garakka ehtiyoji bo'lsa, faqat darsdan keyin qatnashishi mumkin. Bolalarga tarbiya berishda ota-ona va mahalla faollariga yuzlanamiz. Ular-ning tarbiyasi yaxshi bo'lsa bo'lgani, sifatli ta'lim olishini esa bizga qo'yib bersin.

Keyingi yillarda aksariyat ota-onalarning xayolida bir fikr: "Maktabda olgan bilim bilan farzandim o'qishga kira olmaydi". Shuning uchun ham ular o'g'il-qizlarining mak-tabni bitirishiga 2-3 yil qolganda qo'shimcha to'garaklarga qatnashi kerakligi esiga tushib qoladi. Farzandi bosh-lang'ich sinfni tugat-gandan keyin maktab bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysa, vaqt topib, o'qituvchilar-ning ham faoliya-tini kuzatib borsa, yaxshi natijalarga

Bugunning gapi

“SOQOL BIR QARICH, TIL IKKI QARICH...”

erishish mumkin. Bu ham o'quvchini, ham ustozlarni o'z ustida ishlashga majbur qiladi. Yana bir gap, aynan bugungi kunda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun repetitorga borish ham shart emas. O'quvchi maktabda o'tilayotgan darslarni yaxshi o'zlashtirsa, tushunmaganlarini darsning o'zida yoki maktabda tashkil etilgan bepul to'garaklarda ustozidan so'rab o'rgansa ham maqsadga muvofiq.

Yig'ilishda "Soqoli bir qarich, tili ikki qarich..." deya ta'riflangan o'quvchining ism-familiyasi o'qilganda bir kishi o'rnidan turib:

- Uning yuzida teri kasalligi bor, shuning uchun ham soqolini ololmayapti, - dedi, - tuzalishi bilan oladi, albatta.

"Tili-chi?", degan savol esa javobsiz qoldi.

Bir paytlar ko'chadan muallim o'tayotgan bo'lsa, o'quvchi uning yo'lini kesib o'tmasdi. Darsdan keyin vaqtini behuda o'tkazayotgan bola ustozini ko'rib qol-sa, "Ko'chada nima qilib yuribsan", degan savolga javob berolmasligini bilib, undan yashirinlashga harakat qilardi. Bugun esa o'qituvchi o'quvchilariga tarbiya berishga urinsa, ustozga nisbatan hurmatsizlik qilib, har bir gapi-ga bema'ni javob qaytaradigan tili "uzun" o'g'il-qizlar ko'pchilikni tashkil etadi.

- Kishi farzandi haqida kimdandir yaxshi gap eshit-sa, o'zini yettinchi osmonda suzib yurgandek his qiladi, - dey-di yig'ilish ishtirokchilaridan biri. - Aksincha bo'lsa-chi?! Bugun yer yorilmadi, kirib ketmadim. To'g'risini aytishim kerak, hayotimda birinchi marta ota-onalar yig'ilishida qatnashishim. Ish, ro'zg'or tashvishi, deb farzandimning o'qishiga e'tiborsiz bo'libman. Uning yolg'onlariga ishonib yurgan ekanman. Ustozlar bilan tez-tez bog'lanib tur-ganimda bugungidek uyalib qolmasligimni anglab yetdim.

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatimizda muntazam dars qoldiradigan 1283 nafar o'quvchi aniqlangan. O'tkazi-layotgan o'rganishlar va ota-onalar yig'ilishlari voyaga yetmaganlar nazoratsiz qolishining oldini olishga xizmat qiladi. E'tiborsiz qolgan boladan esa yaxshiliklar kutish qiyin. Birgina misol, o'tgan yili viloyatda 191 ta jinoyat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan. Ularning 60 foizini o'g'irlik tashkil etadi.

Qayd etish lozimki, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47-moddasi (Bolalarni tarbiyalash va ular-ga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarini bajarmaslik) bo'yicha javobgarlik belgilangan.

Unga ko'ra, bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravaridan 25 baravarigacha jarima solishga yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazo-si qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Tan olish kerak, maktab - mahalla - ota-ona hamkorligi shu paytga qadar ham mavjud edi, ammo bu xo'jako'r-singa bo'lib kelgan. Bugungi kunda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Endilikda o'quvchilarning davomati bilan faqat o'qituvchi shug'ullanmaydi. Maktab rahbariyati tomonidan ko'p dars qoldiradigan o'quvchilar aniqlansa, ularning ota-onasini ogohlantirish va kerak bo'lsa, jazoga tortilishida mahalla faollari, tegishli organ xodimlari ham-korlikda ishlaydi.

To'liq SIDDIQOV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

27-APREL

Odil SUNNATOV – 1951-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

Jahongir VOHIDOV - 1995-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan.

44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g'olibi. "O'zbekiston iftixori" unvoni sohibi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 739 nusxada chop etildi. Buyurtma 217. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda